

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND
FILIALI



“SPORT O'YINLARI NAZARIYASI VA USLUBIYATI” MODULI

“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishining umumiyligi o‘rtalim muassasalarini
pedagogik kadrlarni malakasini oshirish kursi uchun

O‘qituvchi: IBRAGIMOVA DILBAR MAMATOVNA

1-mavzu. Sport o‘yinlarining tasnifi, tavsifi va atamalari

Reja:

- 1. Sport o‘yinlarining tasnifi**
- 2. Sport o‘yinlari tavsifi va unda
ishlatiladigan atamalarning
qo‘llanilishi**


Sport turlarining 3 asosiy guruhi mavjud bo‘lib ular: milliy sport turlari va xalqaro sport turlari. Milliy sport turlari har bir xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, mehnat faoliyati va dam olish sharoiti asosida rivojlangan.

Xalqaro sport turlari muayyan sharoitlarda musobaqalar o‘tkazishning umumlashtirilgan tizimlaridan iborat bo‘lib, bunda musobaqa ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini, natijalarni hisobga olish va baholashni xalqaro miqyosda bir xil tartibga keltirish, yagona qoidalardan foydalanishga asoslangan maxsus cheklashlar nazarda tutiladi.

Sport o‘yinlari keng tarqalgan bo‘lib o‘quvchi yoshlarni jismoniy rivojlantirish, ularning salomatligini mustahkamlashning ommabop vositalardan biri hisoblanadi.



SPORT O'YINLARI



BASKETBOL



VOLEYBOL



GANDBOL



FUTBOL



REGBI

Sport o‘yinlarining tavsifi

Basketbol o‘yinini tavsifi-Dunyoda ommalashgan sport o‘yinlaridan biri basketbol bo‘lib, o‘yin tez o‘ynaladigan jamoaviy sport o‘yinlaridan hisoblanadi. Basketbol o‘yini 1891-yilda Djeyms Neysmit tomonidan kashf etilgan.

Dastlabki basketbol o‘yin qoidalari 1892 yil matbuotda e‘lon qilingan

Xalqoro basketbol fedaratsiyasi 1932 yilda tashkil topgan

Basketbol sport turi olimpiada sport turi deb 1935 yil XOQ tomonidan tan olingan va 1936 yilda Olimpiada o‘yinlar dasturidan joy olgan

O‘zbekistonga basketbol 1913-1914 yillarda kirib kelgan. Mustaqilikdan keyin 1991 yilda o‘zbekistonda basketbol fedaratsiyasi tashkil topib, 1992 yilda XOQ ga a’zo bo‘lgan



волейбол
хамма
жойда



Сувда



Дам олишда



Залда




пляжеда

Miloddan avvalgi 3-asr rim xronikalari yilnomalari saqlanib qolgan. Ular musht bilan to‘pni urgan o‘yinni tasvirlashadi. 1500 yilda tarixchilar tomonidan tasvirlangan qoidalar bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Voleybol sport turiga o‘xshab ketadigan o‘yin to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar XVI-asrga oiddir. Bu qadimgi topilmalarda aks etirilgan manbalarda keltirib utilgandik voleybolni kungil ochar o‘yini ham deb atashgan. Voleybol o‘yini bilan fakat shaxardagina emas, qishloq joylarida, dam olish xamda sog’lomlashtirish maskanlarida, ko‘ngil ochish, istiroxat bog’larida, qo’lllar, suv omborlari, daryo soxillarida xordik chiqaruvchilarda ham keng ko‘llaniladi. Bunday sharoitlarda maydon chcgalarari (doira shaklida), o‘yin qoidalari ixchamlashtiriladi.

Yana muhimi shundaki, erkak-ayollar, yigit-kizlar, keksayu-yoshlar aralash o‘ynashadi. Bunday holatlar jismoniy chinikish, ruxiy oziklanish, o‘rtoklik, do’stlik kabi fazilatlarni singdirishda voleybol xizmat qila oladi.





Voleybol sport turining tasnifi

**Voleybol sport turi 1895 yili Pastor Vilyam Morgan tomonidan yaratilgan.
Ushbu o‘yinni “Voleybol” deb Alfered Xalsted nomini bergen**

Voleybol o‘yinining dastlabki rasmiy o‘yin qoidalari 1896 yilda ishlab chiqilgan.

Voleybol sport turi Olimpiada o‘yinlari dasturiga 1964 yilda kiritilgan

Voleybol sport turi 1924—1925 yillarda O‘zbekistonga kirib kelgan va rivojlangan. O‘zbekistonda voleybol federatsiyasi 1991 yili tashkil topgan

Xalqaro Voleybol Federatsiyasiga 1991 yili a’zo bo‘lgan va Osiyo Voleybol Konfederasiyasiga 1992 yili a’zo bo‘lgan

Gandbol o‘yining tasnifi

Birinchi bo‘lib Daniyaning Ordrup shahridagi qizlar gimnaziyasining o‘qituvchisi Xolger Nilson o‘zi o‘tayotgan darslariga handball o‘yinini kiritgan.

Bu o‘yinda kichik maydonda 7 kishidan iborat 2 jamoa to‘pni bir birlariga uzatib raqib darvozasini ishg’ol qilishga qaratilgan

Gandbol sport turining 1898 yili Xolger Nilson tomonidan qoidalari ishlab chiqilgan

1972 yildan (erkaklar uchun) va 1976 yildan (ayollar uchun) boshlab gandboli olimpia o‘yinlari tarkibiga kiritildi. O‘zbekistonda Gandbol 1923 yillarda kirib kelgan

O‘zbekistonda 1992 yili gandbol fedaratsiyasi tashkil etilib, 1993 yili Xalqoro va Osiyo fedaratsiyalariga qabul qilingan

Gandbol o'yini qoidalariiga keyingi kiritilgan o'zgartirishlar o'yining atletik bo'lishiga olib keldi. 1923 -yilda o'yin qoidalariiga 3 sekund va 3 qadam bandlari kiritildi, bu o'z navbatida o'yin texnikasi va taktikasiga hamda o'yining tezkor bo'lishiga olib keldi.

Gandbolning rivojlanish tarixi va tasnifi Gandbol sport o'yin turlari ichida eng yoshi xisoblanadi. Xozirda erkaklar va ayollar jamoalari ko'prok kichik gandbol (zal gandboli) o'yinini o'ynaydilar, 1960 yillar o'rtalariga qadar xalqaro mikyosga katta gandbol yoki katta maydonda o'tkaziladigan ko'rinishda gandbol o'yini tanilgan.

Gandbol o'yinida o'yinchilardan o'yin davomida jismoniy jixatdan katta kuch berib o'ynash talab qilinadi. Startdan chiqish tezligi, sprinter tezligi, maxsus chidamkorlik, epchillik, yugurish yunalishini uzgartira olishlik va ritmini almashtirish kabi yugurishni turli ko'rinishlari, yugurish reaksiyasini rivojlantiradi. To'p otish va to'pga to'siq qo'yishda yuqoriga va uzunlikka sakrash mashqlari sakrovchanlikni rivojlantirishda yordam beradi.

Xalqaro gandbol federasiyasi 1928 yili tashkil topdi, 1946 yili esa uni qaytadan tuzishdi. Xozirda esa XGF 197 dan ortiq milliy ittifoqdosh mamlakatlar a'zo. 1937 yildan buyon erkaklar o'rtasida va 1957 yildan ayollar o'rtasida har 2 yilda XGF si jahon championatini o'tkazadi.

Futbol sport turining tasnifi.

Futbol eng qadimiy o‘yinlardan biri bo‘lib, oyoq bilan to‘p o‘ynash Britan orollarida IX asrdayoq juda mashhur bo‘lgan. 1863-yil 26-oktyabrdan Londonda Angliya futbol uyushmasi tashkil etilgan va bu o‘yining 13 moddadan iborat bo‘lgan ilk rasmiy qoidalari tasdiqlangan. 1904 yil Xalqaro Futbol Uyushmasi – FIFA tashkil etildi. Futbol sport turi O‘zbekistonda 1912 yilda Qo‘qonda birinchi jamoasi tashkil topgan.



- Futbol o'yining ilk qoidalarida belgilanishicha, maydon uzunligi 200 yard (183 metr)dan, kengligi 100 yard (91 metr)dan oshiq bo'lmasligi kerak. Darvozalar ikki ustundan iborat bo'lib, ular orasida to'sin bo'lmasigan va ustunlar orasidagi masofa 8 yard (7,32 m) bo'lgan.



Uzoq vaqt mobaynida na jarima to'pi, na 11 metrlik zarba bo'lgan. Qoidabuzarlik uchun erkin zarbalar bilan chegaralanib qolinaverardi. Nihoyat, 1891 yil eng qat'iy jazolardan biri – 11 metrlik zarba kiritildi, uni inglizcha so'z bilan «penalty» deb ataydilar.

Darvozabonning qo'l bilan o'ynashga haqqi yo'q edi. 1871 yilda o'ng qo'l bilan o'ynashga ruxsat berilgan, u ham bo'lsa faqat darvoza maydoni ichida. Darvozabonning jarima maydoni ichida ham qo'l bilan o'ynash huquqini qo'lga kiritishi uchun 30 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ladi (1902).



1855 yil Charliz Gudiyer kauchukli to'pni ishlab chiqdi. O'sha to'p Y'yu Yorkdagi Milliy futbol tarixiy zalida saqlanadi. 1862 yil ixtirochi Layndon tomonidan birinchi rezinali kamerali to'p ixtiro qilindi. 1872 yili to'pni og'irligi va diametri rasman tan olindi. 1870 yilibirinchi marta jamoadao'yinchilar soni belgilangan..



• Futbol shakllanayotgan davrlarda jamoa sardorlari o'yin qoidalariga rioya qilinishini kuzatib turardilar. Futbol maydonida hakam 1880 yilda paydo bo'ldi, 1 yildan so'ng esa hakam ikkita yordamchisi bilan maydonga chiqa boshladi. Hushtak 1878 yilda kiritildi, bunga qadar hakam to'xtatish yoki o'yinni qayta boshlash uchun ovozdan yoki qo'l harakatlaridan foydalanardi. O'sha yillarda barcha milliy futbol uyushmalari uchun qoidalar bir xil yoki majburiy bo'lмаган. Har bir uyushma o'z xohishiga ko'ra bu qoidalarga turli o'zgartirishlar kiritishi mumkin edi. Bu vaziyat xalqaro uchrashuvlar o'tkazish yoki xalqaro musobaqalar tashkil etishda qiyinchiliklar tug'dirardi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29- oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasida regbi sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori qabul qilindi qarorda jumladan so'nggi yillarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, sportning har xil turlarini, shu jumladan, regbini yanada ommalashtirish, sport bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar va infratuzilma qaratilgan chora-tadbirlar oshirilmoqda.

Shu bilan birga, moddiy- texnik baza va infratuzilmaning yetarli emasligi, regbi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uyg'un tizimi yaratilmaganligi sohaning yanada rivojlanishiga hamda O'zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib ishtirokini ta'minlashga to'sqinlik qilayotganligini ta'kidlandi.



Regbi sport turi 1823 yili Angliyada birinchi marta zamonaviy regbi o'yini o'ynalgan. Regbichilar jamoasi 15 nafar o'yinchidan iborat, ba'zi bir musobaqa turlarida 13 nafar yoki 8 nafar yoki 7 nafar o'yinchi ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29- oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasida regbi sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori qabul qilindi. O'zbekistonda regbi sport turi 1969 yili o'ynala boshlagan. Regbining rasmiy sport turiga aylanishining asoschisi bo'lib Vali Tojiyev hisoblanadi.

O'yin maqsadi: har bir oyinchilari to'pni qo'l va oyoqlari bilan bir-birlariga oshirib, raqib jamoa darvozasi ortidagi maydonga qo'yishlari yoki N - ko'rinishidagi darvozaga kiritishlari kerak.

Tarixiy taraqqiyoti: Regbin ing qadimgi to'p bilan o'ynaladigan o'yinlardan biri.

Bu o'yin qadimgi Rim va Xitoyda taraqqiy yetgan. Keyinroq esa o'rta asrlarga kelib, Italiya, Fransiya va Angliyada regbi o'yiniga o'xshash o'yin o'ynalgan. 1823 yili Angliyada (Londondan 300 mil uzoqlikda) birinchi marta zamonaviy regbi o'yini o'ynalgan.

Uilyam Uebb Ellis ismli futbolchi o'z jamoasini mag'lubiyatdan qutqarishga urinib, to'pni qo'llari bilan ushlab, raqib darvozasiga yugirib borib gol uradi. Qoidalarni buzganlik uchun u garhol maydondan chiqariladi. Shunga qaramay, Ellisning yangiligi qabul qilindi. Futbolni bir turi paydo bo'ldi, bu o'yin qo'l bilan o'ynashga imkon berdi. 1871-yilda Angliya birinchi rasmiy o'yin qoidalarini tuzgan Regbi itfoqini tashkil qiladi

1888 yilda Regbi bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. 1900, 1908, 1920, 1924 yilda Regbi Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi. Regbi Xalqaro havaskorlar federasiyasi FLRA (1934 yilda tuzilgan)ga 40 dan ortiq mamlakat a'zo. 1960 yildan FLRA Kubogi (norasmiy jahon championati) o'tkazilib kelinmoqda. Yagona federatsiya yuqligi sababli regbi uzoq vaqt olimpiya o'yinlaridan yuqolib qoldi.

Sport o‘yinlarida ishlatiladigan atamalarning qo‘llanilishi



Basketbol – basket –savat, bol – to‘p



Hoop – ingliz tilidan olingan bo‘lib xalqa ma’nosini bildiradi.



Aut-Aut, chetda maydonni chegaralab turgan chiziqning tashqarisiga chiqish.



Taym-aut — inglizcha so‘z bo‘lib, musobaqa qoidasiga ko‘ra jamoalar olishi mumkin bo‘lgan daqiqali tanaffusdir.



Fint — inglizcha so‘z bo‘lib, aldamchi yoki chalg‘ituvchi harakatdir.



No-look pass— ingliz tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida sherigiga qaramasdan to‘p uzatish.



Bahs to‘pi — maydondagi uchta doiradan birida jamoalarning ikki o‘yinchisi o‘rtasida to‘pni ushlab qolish harakati.



Futbol- inglizcha foot-oyoq ball-to‘p

Raqib — raqib jamoa o‘yinchisi.

Atayin fol ko‘pincha savatga to‘p tushirish xavfi paydo bo‘lgan vaziyatda o‘yinchilar tomonidan mo‘ljallab amalga oshiriladi. Shunday follarni o‘yin vaziyatida amalga oshirilgan texnik foldan farqlash lozim

O’tish — o‘yinchining to‘psiz va to‘p bilan harakatlanishi

Shiddatli hujum — hujumchining raqib shitiga harakat: jihatdan tezkor hujum, shuningdek, tezkor yorib o‘tish deb ham ataladi.

Blok— ingliz tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida to‘siq qo‘yish ma’nosini bildiradi

To'siq (zaslon) — raqibga, uning eng qulay holatini yoki to'pni olish uchun chiqishiga imkoniyat yaratishga qarshi faoliyat. Qo'shaloq to'siq — bu o'z sherigi uchun ikki o'yinchi tomonidan qo'yilgan to'siqdir.

Himoyachi — bu atama ikki ma'noga ega, ya'ni bu har qanday himoya qilayotgan jamoa o'yinchisiga ham, orqa chiziqda o'ynayotgan o'yinchiga ham tegishlidir.

Jarima to'pi tashlash — to'pni savatga tashlash paytida uni to'xtatib qolish maqsadida raqib tomonidan yo'l qo'yilgan xato uchun belgilanadi va u jarima tashlash chizig'idan bajariladi.

Pressing — inglizcha so'z bo'lib, hujumchilarni shoshilinch faoliyat va xato qilishga majbur qiladigan tig'iz, faol himoyadir

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT !**